JURNALISTIKADA TARJIMA VA AXBOROT XAVFSIZLIGI: MANIPULYATSIYAGA QARSHI YONDASHUVLAR

Jahongirova Iqbola Jalil qizi,
O‘zMU Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi 2-kurs magistranti
E-pochta: ikbolajakhongirova.spc@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19606575

Annotatsiya. *Mazkur maqolada global raqamli axborot makonida chet el manbalaridan kirib kelayotgan qisqa va to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilingan xabarlarning jurnalistik mas’uliyat, milliy mafkura barqarorligi hamda axborot xavfsizligiga ko‘rsatadigan ta’siri kompleks tahlil qilinadi. Raqamli platformalar orqali yuqori tezlikda tarqalayotgan axborot oqimi ko‘pincha jurnalistik sharh va kontekstual izohsiz auditoriyaga yetkazilayotgani kuzatilmoqda. Maqolada jurnalistning axborotni tanlash, filtrlash va talqin etishdagi kasbiy mas’uliyati yetakchi ilmiy manbalar asosida yoritilib, bevosita tarjima qilish amaliyotining uzoq muddatli ijtimoiy-siyosiy oqibatlari ilmiy asosda ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *manipulyatsiya, agitatsiya, jurnalistik sharh, milliy mafkura, axborot xavfsizligi, auditoriya ongi, sun’iy intellekt, tarjima amaliyoti, ijtimoiy psixologiya, media savodxonlik.*

Annotation. *This article provides a comprehensive analysis of the impact of short, directly translated news content originating from foreign sources within the global digital information space on journalistic responsibility, the stability of national ideology, and information security. It is observed that the flow of information rapidly disseminated through digital platforms is often delivered to audiences without adequate journalistic commentary or contextual interpretation. The article, drawing on leading academic sources, examines the professional responsibility of journalists in selecting, filtering, and interpreting information, and scientifically reveals the long-term socio-political consequences of direct translation practices.*

Keywords: *manipulation, agitation, journalistic commentary, national ideology, information security, audience consciousness, artificial intelligence, translation practices, social psychology, media literacy.*

Аннотация. *В данной статье проводится комплексный анализ влияния кратких и напрямую переведённых сообщений, поступающих из зарубежных источников в условиях глобального цифрового информационного пространства, на журналистскую ответственность, устойчивость национальной идеологии и информационную безопасность. Отмечается, что поток информации, стремительно распространяющийся через цифровые платформы, зачастую доводится до аудитории без должного журналистского комментария и контекстуальной интерпретации. В статье, на основе ведущих научных источников, освещается профессиональная ответственность журналиста в процессе отбора, фильтрации и интерпретации информации, а также научно раскрываются долгосрочные социально-политические последствия практики прямого перевода.*

Ключевые слова: *манипуляция, агитация, журналистский комментарий, национальная идеология, информационная безопасность, сознание аудитории, искусственный интеллект, переводческая практика, социальная психология, медиаграмотность.*

Kirish. Raqamli media makonining jadal kengayishi zamonaviy jamiyatda axborot almashinuvi tezligini mislsiz darajada oshirdi. Bugungi kunda jurnalistika va media platformalar axborotni birinchi bo‘lib yetkazish poygasida tezkorlikni asosiy ustuvor

mezon sifatida qabul qilmoqda. Ayniqsa, Instagram, Telegram kabi ijtimoiy tarmoqlarda qisqa xabarlar formati auditoriyani jalb etishning samarali vositasiga aylangan. Biroq tezkorlikka haddan tashqari urg‘u berilishi axborotning mazmuniy sifati, kontekstual izohi va jurnalistik tahlilni ikkinchi darajaga surib qo‘ymoqda. Chet el manbalaridan olingan xabarlarning hech qanday sharh va filtrlashsiz tarjima qilinishi milliy axborot makonida mafkuraviy bo‘shliq yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Axborot faqatgina faktlar majmui emas, balki ma’no, baho va pozitsiyani shakllantiruvchi kuch ekanini inobatga olinsa, jurnalistning kasbiy mas’uliyati yanada ortadi. Shu bois ushbu maqolada to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima amaliyotining nazariy asoslangan tanqidi va uning milliy mafkuraga ta’siri dolzarb ilmiy muammo sifatida ko‘rib chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqotda propaganda va manipulyatsiya mexanizmlarini tushuntirib beruvchi bir qator fundamental ilmiy manbalarga tayangan holda tahlil olib boriladi. Robert B. Cialdinining *“Ta’sir kuchi: Ishontirish psixologiyasi” (“Influence: The Psychology of Persuasion”)* asarida inson ongiga ta’sir etishning psixologik usullari, jumladan, ijtimoiy ishonch, hokimiyat hamda nufuz ta’siri, shuningdek, takrorlash omillari keng yoritilgan. Ushbu nazariyalar qisqa va sharhsiz tarjima qilingan xabarlar orqali auditoriyaga sezilmas ta’sir ko‘rsatish mexanizmini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Douglas Rushkoffning *“Majburiy ta’sir: Biz nega ularni tinglaymiz?’’ (“Coercion: Why Do We Listen to What They Say”)* asari esa zamonaviy media muhitida majburiy ishontirish va yashirin bosim texnologiyalarini ochib beradi. Muallif auditoriyaning tezkor va hissiy axborotga bo‘lgan moyilligi manipulyatsiya uchun qulay sharoit yaratishini ta’kidlaydi. Leo Lowenthal va Norbert Gutermanning *“Aldov payg‘ambarlari” (“Prophets of Deceit”)* nomli tadqiqotida agitatsion nutq va populistik xabarlarning jamiyat ongiga ta’siri tahlil qilinadi. Ushbu asar chet eldan kirib kelayotgan ideologik yuklangan xabarlarning mahalliy kontekstdan uzilgan holda tarjima qilinishi qanday xavf tug‘dirishini anglashda muhim manba hisoblanadi. Edvard Bernaysning *“Propaganda” (Propaganda)* asari esa jamoatchilik fikrini boshqarish va ommaviy ongni shakllantirish texnologiyalarining klassik modelini taklif etadi. Bernaysning g‘oyalari bugungi raqamli platformalarda qisqa xabarlar orqali amalga oshirilayotgan axborot ta’sirini tahlil qilishda dolzarbdir. Kara-Murzaning *“Ong ustidan manipulyatsiya” (“Манипуляция сознанием”)* asari post-sovet hududida axborot orqali ongni boshqarish masalasini keng yoritib, milliy axborot immuniteti tushunchasiga alohida e’tibor qaratadi. Walter Lippmannning *“Jamoatchilik fikri” (“Public Opinion”)* asari esa axborot va reallik o‘rtasidagi tafovut, ommaviy tasavvurlar shakllanishi hamda jurnalistikaning bu jarayondagi roli haqida fundamental nazariy qarashlarni ilgari suradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada analitik-deskriptiv (tahliliy-tasviriy) hamda qiyoslash metodlaridan foydalanildi. Analitik-deskriptiv yondashuv orqali

zamonaviy media makonida to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinayotgan xabarlarning mazmuniy va mafkuraviy jihatlari tahlil qilindi. Qiyosiy metod yordamida esa turli davlatlarning axborot siyosati misolida milliy mafkura himoyasi masalasi ko‘rib chiqildi. Xususan, Xitoy media makonida milliy mentalitet va ideologiyaning qat’iy himoyalanishi, AQSh esa global platformalar orqali o‘z axborot narrativlarini boshqa auditoriyalarga faol singdirishga intilayotgani axborotlar urushi kontekstida tahlil etildi. Ushbu misollar tadqiqot metodologiyasi doirasida empirik dalil sifatida qo‘llanildi.

Zamonaviy jurnalistikada tezkorlik va eksklyuzivlik tobora ko‘proq professionallikning asosiy mezoni sifatida talqin qilinmoqda, biroq bunday yondashuv axborotning ijtimoiy, mafkuraviy va strategik mohiyatini ikkinchi darajaga surib qo‘ymoqda. Xususan, xorijiy axborot manbalaridan olingan yangiliklarni hech qanday tahlil, sharh va kontekstual izohsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilib auditoriyaga taqdim etish jurnalistikaning fundamental vazifalariga zid bo‘lib, jurnalistni mazmun yaratuvchi va talqin qiluvchi subyekt emas, balki oddiy axborot uzatuvchi texnik vositaga aylantiradi. Holbuki, jurnalist axborotni nafaqat yetkazishi, balki uni mahalliy ijtimoiy-siyosiy muhit, milliy manfaatlar va auditoriya mentaliteti nuqtayi nazaridan qayta talqin qilib berishi, sharhlashi lozim. Bu jarayonning mohiyatini tushunishda PR va kommunikatsiya sohasidagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi, chunki PR mutaxassislari ijtimoiy tarmoqlarda auditoriyani chuqur o‘rganish jarayonida ularning yoshi, jinsi, irqi, ijtimoiy mavqei va daromad darajasigacha bo‘lgan ko‘rsatkichlarni tizimli ravishda tahlil qilganlar [1. P.91.]. Mazkur ma’lumotlar keyinchalik auditoriya xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatish, ya’ni uni ma’lum darajada yo‘naltirish va manipulyatsiya qilish mexanizmlarini ishlab chiqishga xizmat qilgan. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, bugungi ijtimoiy tarmoqlar algoritmlari tasodifan yoki qisqa muddatda shakllanib qolmaganini, balki yillar davomida olib borilgan ilmiy-tahliliy va amaliy tadqiqotlar mahsuli ekanini ta’kidlash zarur. Aks holda, axborotni chetdan olingan manbalardan ko‘paytirib tarjima qilish jarayoni kuchaygan sari, axborot manbai auditoriyaga mazmunan yaqinlashib borgandek ko‘rinadi. Aynan shu mexanizm ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy kommunikatsiya jarayonlarida manipulyativ ta’sirning samaradorligini oshiradi. Chunki auditoriya dastlab kichik, sezilmas majburiyatni qabul qilganidan so‘ng, keyingi axborot va g‘oyalarni ham izchil ravishda qo‘llab-quvvatlashga moyil bo‘lib qoladi. Natijada, axborot iste’molchisi o‘z tanlovini mustaqil qaror sifatida qabul qilayotganini his etsa-da, biroq u oldindan ishlab chiqilgan psixologik bosqichlar orqali muayyan yo‘nalishga yetaklanadi. Mazkur holat jurnalistika va PR amaliyotida auditoriya xulq-atvorini boshqarish mexanizmlari tasodifiy emas, balki chuqur ilmiy-psixologik asosga ega ekanini yana bir bor tasdiqlaydi [2. P.59.].Misol uchun, agitatorlar omma orasida muayyan g‘oyani ilgari surishda auditoriyaning mantiqiy asoslangan qarashlariga emas, balki ularning mavjud noroziliklarining emotsional qatlamiga ta’sir

ko‘rsatadi. Bu noroziliklar tahlil qilinganda, ular muayyan siyosiy yo‘nalish yoki aniq ijtimoiy guruhga qaratilmagan bo‘ladi. U ko‘proq shaxsiy hayotdagi umumiy qoniqmaslik hissi bilan bog‘liq ekanini kuzatish mumkin. Agitatorlar ana shu individual darajadagi noroziliklarni mohirona aniqlab, ulardan ommaviy safarbarlik vositasi sifatida foydalanadilar [3. P.11.].

Zamonaviy axborot makonida tarjima qilingan materiallarning tahlil va sharhsiz e’lon qilinishi nafaqat jurnalistikaning interpretativ vazifasini susaytiradi, balki o‘quvchi bilan axborot o‘rtasidagi kommunikatsiya xarakterini ham o‘zgartiradi. Bunday holatda matn yakunlangan, izohlangan va ma’nosi yopiq axborot mahsuli emas, balki fragmentar va to‘liq bo‘lmagan ma’lumot manbai sifatida qabul qilinadi. O‘quvchi mazkur materialni mustaqil bilim manbai emas, muayyan g‘oya yoki voqelikka kirish nuqtasi deya idrok eta boshlaydi. Tarjima matnning kontekstdan uzilganligi, muallif pozitsiyasining ochilmaganligi hamda mahalliy ijtimoiy-siyosiy sharoit bilan bog‘lanmaganligi o‘quvchida qoniqish uyg‘otmaydi. Shu tariqa axborot yetishmasligi holati yuzaga keladi. Aynan shu intellektual bo‘shliq o‘quvchini birlamchi manbaga murojaat qilishga undovchi asosiy omillardan biriga aylanadi. Chunki o‘quvchi tarjima qilingan matndan tahliliy xulosa yoki yo‘naltiruvchi sharh topa olmaganida, u axborotning asl manbasida mazmun yanada chuqurroq, muvozanatliroq va ishonchliroq yoritilgan bo‘lishi mumkin, degan taxminga keladi. Shu tariqa, tarjima material auditoriyani xorijiy axborot manbalariga yetaklovchi vositaga aylanib, mahalliy jurnalistikaning mazmuniy vositachilik rolini kuchsizlantiradi. Chet el axborot manbalari ko‘pincha siyosiy liderlar va davlat shaxslarini mahalliy nuqtai nazardan yuqori baholangan tarzda tasvirlash orqali o‘z ideologik ta’sirini auditoriyaga nozik shaklda yetkazadi. Zero, propaganda jamiyatni har tomondan o‘rab olib, insonlarning dunyo haqidagi aqliy tasavvurlarini bosqichma-bosqich o‘zgartirish xususiyatiga ega bo‘lgani sababli, bunday yondashuv axborot qabul qilish jarayonida sezilmas, ammo barqaror ta’sir mexanizmini shakllantiradi [4. P.36.]. Xususan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinadigan materiallar milliy kontekstdan uzilgan holda targ‘ibot effektni kuchaytirib, auditoriyaning siyosiy tafakkurini tashqi ideologik yo‘nalishlarga yo‘naltirishga xizmat qiladi. Xalq aynan bir siyosatning foyda keltirishiga ishonadi. Lekin bu siyosatni ta’minlashi uchun amalga oshiriladigan yo‘l har doim xalq tomonidan ijobiy qabul qilinavermaydi [5. P.169.] va norozilikni keltirib chiqaradi. Bunday vaziyatlarda aholining noroziligi agitatorlar va propagandachilar uchun o‘z ideologiyalarini tatbiq etish imkonini beruvchi ideal maydon yaratadi.

Odatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilingan xabarlar ko‘pincha ularni ishlab chiqargan davlatning siyosiy pozitsiyasi, madaniy qadriyatlari va mafkuraviy yo‘nalishlari bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Agar ushbu kontekst mahalliy auditoriya uchun yetarlicha ochib berilmasa, axborot qabul qiluvchi auditoriyaning ong osti uni neytral fakt sifatida qabul

qilmaydi. Bunay xabarlar yashirin ideologik yuk tashuvchi xabar sifatida qabul qilinishi mumkin. Bu holat milliy axborot maydonining begona narrativlar bilan to‘yinib borishiga olib keladi. Shu tariqa, axborot urushi o‘z davlatining mafkurasini boshqa davlatlardagi auditoriyaga singdirish orqali, nafaqat siyosiy ta’sir ko‘rsatishga, balki ijtimoiy ongni o‘zgartirishga ham xizmat qiladi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda shakllangan “tez va lo‘nda xabar” trendi qisqa muddatli auditoriya e’tiborini jalb qilish va obunachilar sonini oshirish vositasiga aylangan bo‘lsa-da, filtrlanmagan axborot orqali auditoriyani ushlab qolish strategiyasi uzoq muddatda samarasiz hisoblanadi. Ayniqsa, tarjima qilingan xabarlar kontekstsiz bo‘lsa, ularning ideologik ta’siri yanada kuchayadi, chunki o‘quvchi axborotning asl maqsadi va manbasini aniqlash imkoniyatidan mahrum bo‘ladi. Shu sababli, jurnalist va axborot ishlab chiqaruvchilar auditoriya bilan ishlashda faqat axborot uzatuvchisi bo‘lib qolmasligi kerak emas. Jurnalist obrazi kontekst yaratuvchi va tahlil qiluvchi subyekt sifatida shakllanishi muhimdir. Zamonaviy auditoriya esa axborot iste’molchisi sifatida tobora ongliroq bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan oddiy tarjimani emas, balki sabab-oqibatli, asoslangan va jurnalistik mas’uliyat bilan izohlangan xabarni talab qiladigan darajaga yetmoqda [6. P.285.].

Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi fonida jurnalistning oddiy tarjimon sifatidagi roli o‘z dolzarbligini yo‘qotmoqda, zero bugungi kunda har bir foydalanuvchi texnologik vositalar yordamida istalgan axborotni bir zumda tarjima qilish imkoniyatiga ega. Shu sharoitda jurnalistning haqiqiy ustunligi faqat matnni biror tilga o‘tkazish emas, balki uni tahlil qilish, sharhlash va har bir xabarni ijtimoiy-siyosiy kontekstga joylashtirish orqali namoyon bo‘ladi. Tarjima texnologiyalari tezkorlik va uzluksiz axborot oqimini ta’minlashi mumkin bo‘lsa-da, ular o‘quvchiga fikrlash majbur qilmaydi; aksincha, ma’lumotni passiv iste’mol qilishga undaydi. Shu jihatdan jurnalist auditoriya uchun bilimga chanqoqni uyg‘otuvchi vosita bo‘lishi lozim. U axborotning sabab-oqibatini tushuntiradi, turli manbalarni solishtiradi, murakkab ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni yoritadi, va shu bilan o‘quvchida tanqidiy tafakkurga intilish hissini shakllantiradi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy axborot maydonida jurnalistning roli nafaqat tezkorlik va ma’lumot uzatish bilan chegaralanmasdan u axborotni talqin qiluvchi, kontekst bilan bog‘lovchi va auditoriya ongini faollashtiruvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Tarjima va texnologik vositalar qanchalik samarali bo‘lmasin, ular o‘quvchini tafakkur qilishi uchun yetarli emas. Shu sababdan jurnalist sharhi va tahlili nafaqat axborotning yuzaki qatlamini ochadi, balki uning ijtimoiy, siyosiy va madaniy ahamiyatini ham yoritadi. Bu jarayon auditoriyada tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, bilimga chanqoqni uyg‘otadi va o‘quvchini passiv iste’molchidan faol tahlilchi va qaror qabul qiluvchi

shaxsga aylantiradi. Shu nuqtayi nazardan, jurnalist va sun’iy intellekt vositalari o‘rtasidagi farq aniq bo‘ladi:

– *birinchi tafakkur va mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi;*

– *ikkinchisi esa faqat texnik imkoniyatlar bilan chegaralanadi.*

Natijada, jurnalistika faqat axborot yetkazish emas, balki milliy va global axborot maydonida ijtimoiy ongni shakllantirish, auditoriya bilan strategik muloqot o‘rnatish va axborot xavfsizligini ta’minlash vositasi sifatida qaralishi lozim. Shu fikrlar asosida, endi ilmiy xulosalar va tahliliy tavsiyalarni shakllantirishga o‘tish mumkin.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, chet el manbalaridan olingan xabarlarning sharhsiz va kontekstsiz tarjimasi milliy axborot maydoni va auditoriya ongiga sezilmas ideologik ta’sir ko‘rsatish xavfini oshiradi. Bunday yondashuv jurnalistikaning interpretativ vazifasini susaytirib, o‘quvchini passiv axborot iste’molchisi sifatida qoldiradi va uni tashqi axborot markazlariga bog‘lab qo‘yadi. Shu sababli, jurnalistning har bir xabarni tahlil qilish, sharhlash va milliy kontekstga moslashtirish orqali yetkazish mas’uliyati nafaqat kasbiy talab, balki axborot xavfsizligini ta’minlashning strategik vositasi hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

– qisqa xabarlar formatida ham minimal jurnalistik sharh va tahlil kiritilishi zarur, shunda auditoriya xabarni kontekstual va analitik jihatdan qabul qilishi mumkin bo‘ladi;

– axborot ishlab chiqaruvchilar va jurnalistlar uchun milliy axborot siyosati, media savodxonlik va manipulyatsiyaga qarshi kurash bo‘yicha maxsus treninglar tashkil etilishi lozim;

– milliy platformalarda axborotni tarqatish strategiyasi ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi, chet el xabarlarini sharh va tahlil bilan yetkazish orqali auditoriya ongini faollashtirish va milliy mafkuraviy xavfsizlikni mustahkamlash tavsiya etiladi;

– sun’iy intellekt va tarjima vositalari jurnalist faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi mexanizm sifatida ishlatilishi lozim, ammo ular axborotning sharh va tahlilini o‘rnini bosmasligi kerak;

– milliy tahririy siyosat har bir axborot mahsulotining tezkorligi bilan bir qatorda mazmuniy to‘liqligini va auditoriya ongini rivojlantirishini ta’minlashi lozim.

Ushbu tavsiyalar amalga oshirilganda, milliy axborot maydoni tashqi manipulyativ xabarlardan himoyalanadi, auditoriya tanqidiy fikrlash va tahliliy yondashuvni rivojlantiradi. Jurnalist esa axborot yetkazuvchidan kontekst yaratuvchi va milliy mafkura himoyachisi sifatida faol subyektga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Douglas Rushkoff, *Coercion: Why We Listen to What "They" Say*, New York: Riverhead Books, 1999, p. 91.
2. Robert B. Cialdini, *Influence: The Psychology of Persuasion*, New York: Harper Business, 2007, p. 59.
3. Prophets of Deceit — Leo Löwenthal, Norbert Guterman. New York: Harper & Brothers, 1949, p. 11.
4. Propaganda — Edward Bernays. New York: Horace Liveright, 1928, p. 36.
5. Public Opinion — Walter Lippmann. New York: Harcourt, Brace and Company, 1922, p. 169.
6. Кара Мурза, *Манипуляция сознанием*, Москва: АСТ, 2019, p. 285.